



INFORMATION SECURITY: THREATS IN THE ERA OF GLOBALIZATION AND THE SOCIO-PHILOSOPHICAL SIGNIFICANCE OF THEIR PREVENTION

S.X. Qudratov

Senior Inspector-Psychologist of the Department for Ensuring Public Order

Qumqo'rg'on District Department of Internal Affairs

e-mail: qudratovsiroj@gmail.com

Surkhandarya, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Information security, cybersecurity, protection, threat, encryption, cyberattack, globalization, socio-philosophical approach, personal integrity, freedom, ethics.

Received: 03.08.25

Accepted: 04.08.25

Published: 05.08.25

Abstract: This article reveals the concept of information security, modern technological threats and their consequences. Also, methods of data protection, international experience and measures taken in Uzbekistan on information security are considered. At the same time, information security threats that have arisen in the context of the rapid development of the global information space and globalization are analyzed from a socio-philosophical perspective. In addition, the article considers ethical and social measures.

AXBOROT XAVFSIZLIGI: GLOBALLASHUV DAVRIDA TAHDIDLAR VA ULARNING OLDINI OLISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY AHAMIYATI

S.X. Qudratov

Qumqo'rg'on tumani IIB

JXX HPB VEMB katta inspektor-psixologi

e-mail: qudratovsiroj@gmail.com

Surxondaryo, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik, himoya, tahdid, shifrlash, kiberhujum, globallashuv, ijtimoiy-falsafiy yondashuv, shaxsiy daxlsizlik, erkinlik, axloq.

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot xavfsizligi tushunchasi, zamonaviy texnologik tahdidlar va ularning oqibatlari ochib berilgan. Shuningdek, ma'lumotlarni himoya qilish usullari, xalqaro tajriba va O'zbekistonda axborot xavfsizligi bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, global axborot maydonining tez rivojlanishi va globallashuv sharoitida yuzaga kelgan axborot xavfsizligi tahdidlari ijtimoiy-

falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Qolaversa, maqolada axloqiy va ijtimoiy chora-tadbirlar ko'rib chiqiladi.

ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ: УГРОЗЫ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИХ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ

С.Х. Кудратов

Отдел внутренних дел Кумкурганского района

Старший инспектор-психолог отдела обеспечения общественного порядка

e-mail: qudratovsiroj@gmail.com

Сурхандарья, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Информационная безопасность, кибербезопасность, защита, угроза, шифрование, кибератака, глобализация, социально-философский подход, неприкосновенность личности, свобода, этика.

Аннотация: В статье раскрывается понятие информационной безопасности, современные технологические угрозы и их последствия. Также рассматриваются методы защиты данных, международный опыт и меры, принимаемые в Узбекистане в области информационной безопасности. В то же время, с социально-философской точки зрения анализируются угрозы информационной безопасности, возникшие в условиях стремительного развития мирового информационного пространства и глобализации. Кроме того, в статье рассматриваются этические и социальные меры.

Kirish. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi axborot almashinuvi jarayonini sezilarli darajada soddalashtirdi. Shu bilan birga, axborot resurslarining ochiqligi va internet tarmog'i orqali uzatilishi xavfsizlik muammolarini yuzaga keltirmoqda. Axborot xavfsizligi bugungi kunda davlat, biznes va shaxsiy darajada dolzarb muammoga aylanmoqda.

Axborot xavfsizligi – bu axborotni ruxsatsiz kirish, o'zgartirish, yo'qotish yoki tarqatishdan himoyalashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. Axborot xavfsizligi uch asosiy komponentga asoslanadi:

- Konfidentsiallik – axborotga faqat ruxsat etilgan shaxslar kira oladi;
- Butunlik – axborot o'zgarmagan, asl holatda saqlangan;
- Mavjudlik – axborot kerakli vaqtda foydalanishga tayyor bo'lishi.

XXI asrda axborot texnologiyalari va internet tarmoqlarining jadal rivojlanishi insoniyatni yangi globallashuv bosqichiga olib chiqdi. Axborot oqimining cheksizligi, tezligi va o'zgaruvchanligi bilan birga, yangi tahdidlar ham yuzaga keldi. Axborot xavfsizligi nafaqat texnologik, balki ijtimoiy va falsafiy muammo sifatida dolzarbligini oshirmoqda. Shunga ko'ra,

axborot asrida asosiy tahdidlardan biri yolg'on haqiqatlar, ya'ni manipulyativ kontentdir. Globallashuv davrida asosiy tahdidlarga kiberhujumlar, axborot manipulyatsiyasi, yolg'on ma'lumotlar tarqalishi va xakerlik (Böhme M. 2024. – P.58) kabilar kiradi. Bu tahdidlar jamiyatning axloqiy va siyosiy barqarorligiga zarar yetkazadi. Ular jamiyat ongini boshqarish, siyosiy yoki iqtisodiy maqsadlarda fikrni yo'naltirish uchun ishlatiladi. Bu esa inson tafakkurining erkinligi, irodasining mustaqilligi uchun bevosita tahdiddir. Falsafiy nuqtayi nazaridan, yolg'on haqiqatlar epistemologik inqirozga olib keladi ya'ni, odamlar haqiqat nima ekanini farqlay olmay qoladi. Axborot xavfsizligi bu borada ontologik va axloqiy himoya mexanizmlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Asosiy qism. Globallashuv davrida axborot almashuvi tezligi yuksaladi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish bo'yicha ilg'or axborot – kommunikatsiyalar texnologiyalarini qo'llash kengayadi. Turli xildagi axborotlar xududiy joylashishidan qat'iy nazar bizning kundalik hayotimizga Internet halqaro kompyuter tarmog'i orqali kirib keldi. Axborotlashgan jamiyat shu kompyuter tarmog'i orqali tezlik bilan shakllanib bormoqda. Axborotlar dunyosiga sayohat qilishda davlat chegaralari degan tushuncha yo'qolib bormoqda. Jahon kompyuter tarmog'i davlat boshqaruvini tubdan o'zgartirmoqda, ya'ni davlat axborotlarning tarqalishi mexanizmini boshqara olmay qolmoqda (Ibragimov N., Abduraxmanov V. va boshq. – B.96). Shuning uchun xam mavjud axborotlarga noqonuniy kirish, ulardan foydalanish va yo'qotish kabi muammolar dolzarb bo'lib qoldi. Bularning bari shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligi darajasining pasayishiga olib kelmoqda. Davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi milliy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy va ajralmas qismi bo'lib, axborot himoyasi esa davlatning birlamchi masalalaridan biri bo'lib bormoqda.

Har qanday axborot hisoblash tizimlarini tashkil etishdan maqsad foydalanuvchilarning talablarini bir vaqtda ishonchli axborot bilan ta'minlash hamda ularning konfidentsialligini saqlash hisoblanadi. Bunda axborot bilan ta'minlash vazifasi tashqi va ichki ruxsat etilmagan ta'sirlardan himoyalash asosida hal etilishi zarur. Axborot tarqab ketishiga konfedsial ma'lumotning ushbu axborot ishonib topshirilgan tashkilotdan yoki shaxslar doirasidan nazoratsiz yoki noqonuniy tarzda tashqariga chiqib ketishi sifatida qaraladi.

Tahdidning uchta ko'rinishi mavjud:

1. Konfedsiallikning buzilishiga tahdid shuni anglatadiki, bunda axborot unga ruxsati bo'lmaganlarga ma'lum bo'ladi. Bu holat konfedsial axborot saqlanuvchi tizimga yoki bir tizimdan ikkinchisiga uzatilayotganda noqonuniy foydalana olishlikni qo'lga kiritish orqali yuzaga keladi;

2. Butunlikni buzishga tahdid hisoblash tizimida yoki bir tizimdan ikkinchisiga uzatilayotganda axborotni har qanday qasddan o'zgartirishni o'zida mujassamlaydi. Jinoyatchilar axborotni qasddan o'zgartirganda, bu axborot butunligi buzilganligini bildiradi. Shuningdek, dastur va apparat vositalarning tasodifiy xatosi tufayli axborotga noqonuniy o'zgarishlar kiritilganda ham axborot butunligi buzilgan hisoblanadi;

3. Xizmatlarning izdan chiqish tahdidi hisoblash tizimi resurslarida boshqafoydalanuvchilar yoki jinoyatchilar tomonidan ataylab qilingan harakatlar natijasida foydalana olishlikni blokirovka bo'lib qolishi natijasida yuzaga keladi (Elektron raqamli imzo to'grisida O'zbekiston Respublikasining qonuni. 2021 yil 21 aprel, 562–II-son)

Merodlar. Axborot xavfsizligini ta'minlash har bir tashkilot va fuqaroning asosiy mas'uliyatlaridan biri bo'lib bormoqda. Yaxshi tashkil etilgan axborot xavfsizligi siyosati, zamonaviy texnologiyalar va xodimlarning xabardorligi raqamli xavfsizlikning mustahkam poydevorini tashkil etadi. Uzoq muddatli istiqbolda esa bu yo'nalishdagi ta'lim, ilmiy tadqiqotlar va xalqaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Globallashuv dunyoni yagona axborot makoniga aylantirish jarayonidir. Bu jarayonda axborot resurslari milliy chegaralarni bosib o'tadi, fuqarolar o'rtasida axborot almashinuvi kengayadi, biroq shu bilan birga kiberxavfsizlik tahdidlari kuchayadi (Spinello R. 2019. – P. 444-458).

Axborot xavfsizligi falsafiy nuqtai nazardan qaralganda, insonning shaxsiy daxlsizligi va erkinligi muhofazasi demakdir. Globallashuv sharoitida bu masala yanada murakkablashib, shaxsiy erkinlik va jamiyat xavfsizligi o'rtasidagi ziddiyat yuzaga keladi (Nissenbaum H., Friedman B., & Felten E. 2001. – P.103-114). Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan odamlar haqida ma'lumot yig'ish osonlashdi, bu esa daxlsizlikning buzilishi xavfini kuchaytirdi (Lever A. 2015. – P.4-22). Falsafiy nuqtai nazardan, shaxsiy daxlsizlik inson erkinligi poydevoridir. Agar odamlarning raqamli hayotidagi ma'lumotlari nazorat ostida bo'lsa, ularning ijtimoiy faolligi va tafakkuri cheklanadi (Spinello R. 2019. – P. 456). Shu bois, axborot xavfsizligi shaxsiy daxlsizlikni himoya qilishni o'z ichiga olishi lozim.

Tahlil va natijalar. Erkinlik va xavfsizlik o'rtasidagi ziddiyat qadimdan falsafa uchun markaziy masalalardan biri bo'lib kelgan. Internet insoniyatga axborot erkinligini berdi, biroq shu erkinlikni suiste'mol qilish, yolg'on, manipulyatsiya va nazorat xavfini ham keltirib chiqardi. Bugun inson o'z fikrini erkin bildiradi yoki algoritmlar unga qanday fikrlashni buyuryaptimi? Raqamli axborotlar oqimi ichida odam o'z "men"ini saqlab qola oladimi? Bu savollar jamiyatning axborot xavfsizligi siyosati qanday bo'lishi kerakligini belgilaydi.

Axborot xavfsizligi insonning raqamli muhitdagi shaxsiy daxlsizligini saqlab qolish vositasidir. Bugungi kunda har bir inson haqida minglab bayt ma'lumotlar internetda

saqlanmoqda: u qayerda bo'lgan, nima izlagan, nimani yoqtirgan. Falsafiy jihatdan, bu — inson “ichki olami”ga bo'lgan tajovuzdir. Daxlsizlik — bu nafaqat huquqiy, balki axloqiy mezon. Axborot xavfsizligi esa bu daxlsizlikning jamiyat miqyosidagi kafolatidir.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qator qonuniy asoslar yaratildi. Xususan, 2020-yilda “Kiberxavfsizlik to'g'risida”gi qonun qabul qilindi. Shuningdek, “Raqamli O'zbekiston – 2030” dasturi doirasida axborot texnologiyalarini xavfsiz joriy etish choralari ko'rilmogda. Ayniqsa, davlat organlarida ma'lumotlar markazlarini sertifikatlash amaliyoti joriy etildi. Shunga ko'ra, globallashuv davrida axborotni muhofaza qilish tizimlaridan foydalanish amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, faqatgina kompleks axborotni muhofaza qilish tizimlari samarali bo'lishi mumkin. Unga quyidagi chora-tadbirlar kiradi: 1. Qonunchilik. Axborot himoyasi sohasida yuridik va jismoniy shaxslarning, shuningdek davlatning huquq va majburiyatlarini qat'iy belgilovchi qonuniy aktlardan foydalanish; 2. Ma'naviy-etik. Ob'ektda qat'iy belgilangan o'zini tutish qoidalarining buzilishiko'pchilik xodimlar tomonidan keskin salbiy baholanishi joriy etilgan muhitni hosil qilish va qo'llab quvvatlash; 3. Jismoniy. Himoyalangan axborotga begona shaxslarning kirishini taqiqlovchi jismoniy to'siqlar yaratish; 4. Ma'muriy. Tegishli maxfiylik rejimi, kirish va ichki rejimlarni tashkil etish; 5. Texnik. Axborotni muhofaza qilish uchun elektron va boshqa uskunalardan foydalanish; 7. Dasturiy. Foydalana olishlilikni chegaralash uchun dastur vositalarini qo'llash (Ganiev C.K., Karimov M.M., Tashev K.A. 2008. – 382 b).

Xulosa. Yangi davr yangi axloqiy mezonlarni talab qiladi. Masalan, “feyk” ma'lumot tarqatmaslik, birovning raqamli shaxsiga hurmat bilan qarash, ijtimoiy tarmoqlarda mas'uliyatli bo'lish axborot xavfsizligi madaniyatining bir qismidir. Falsafiy nuqtai nazardan, bular “raqamli axloq” doirasiga kiradi. Bu axloq insoniyatni texnologiyadan asrash emas, balki uni ongli boshqarishga undashdir. Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin. Birgina so'ngi o'n besh yillik ichida O'zbekistonimizning Mustaqil taraqqiyotini ko'ra olmayotgan diniy ekstremistik guruhlar beqarorlik urug'ini sepish, xalqimizni o'zi tanlagan yo'ldan ozdirish, chalg'itish uchun ne-ne kuchlarni ishga solmadilar, har qanday qabih vositalardan foydalandilar. Shu sababli axborot xavfsizligi shunchaki texnik yoki siyosiy muammo emas. U insoniyatning yangi sharoitdagi mavjudligi, tafakkuri, erkinligi va jamiyat barqarorligi bilan chambarchas bog'liq. Faylasuflar uchun bu masala qadriyatlar, erkinlik va mas'uliyat munosabatining zamonaviy shaklini izohlash

imkonidir. Axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirish esa texnologiyani emas, odamni markazga qo'ygan yondashuvni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Böhme, M. (2024). Fundamental Challenges in Cybersecurity and a Philosophy of Vulnerability-Guided Hardening. <https://arxiv.org/abs/2402.01944>
2. Ibragimov N., Abduraxmanov V. va boshq. Axborot xavfsizligiga tahdidlarni tahlili va baholash. // Journal of universal ISSN (E) 2181-4570. – P. 96.
3. Elektron raqamli imzo to'grisida O'zbekiston Respublikasining qonuni. 2021-yil 21-aprel, 562–II-son.
4. Lever A. (2015). Privacy and Democratic Society. In Exploring Privacy from a Springer. https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-031-51063-2_2
5. Nissenbaum H., Friedman B., & Felten E. (2001). Computer Security: Competing Concepts. Proceedings of the 2001 Workshop on New Security Paradigms, 103–114. <https://arxiv.org/abs/cs/0110001>
6. Spinello R. (2019). Ethics in Cyberspace: Freedom, Rights, and Cybersecurity. In A. E. Abbas (Ed.), Next-Generation Ethics: Engineering a Better Society (pp. 444–458). Cambridge University Press.
7. Ganiev C.K., Karimov M.M., Tashev K.A. Axborot xavfsizligi. Axborot-kommunikasion tizimlar xavfsizligi. – T.: Aloqachi, 2008. – 382 b.